

MIGRATSIYA VAZIYATIGA OID HISOBOT

2023-YIL APREL-SENTABR

O'ZBEKISTON

INTERNATIONAL ORGANIZATION FOR MIGRATION (IOM)
MOBILITY TRACKING MATRIX (MTM)



Schweizerische Eidgenossenschaft
Confédération suisse
Confederazione Svizzera
Confederaziun svizra

Swiss Agency for Development
and Cooperation SDC



Mundarija

Kirish	3
Metodologiya	3
Hisobot qamrov doirasi	3
Xalqaro va ichki migrantlar ko'lami va oqimi	3
O'zbekistonga doimiy yashash uchun migratsiya	5
O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun emigratsiya	6
O'zbekistondan asosiy boriluvchi mamlakatlarga mehnat migratsiyasi oqimi	6
O'zbekistonlik migrantlar boruvchi asosiy davlatlar: Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya Respublikasi, Koreya Respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Amerika Qo'shma Shtatlari	7
Iqlim o'zgarishi va migratsiya	11
Rasmiylashtirilmagan migratsiya va odam savdosi	11
O'zbekistonga pul o'tkazmalari oqimi	12
Qisqartmalar	14
Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati	15

Kirish

Mazkur hisobot 2023-yilning aprel-sentabr oylari uchun ichki va tashqi ko'chishlar hamda migrantlar guruhlari bo'yicha milliy va xalqaro ma'lumotlar to'plamlaridan olingan ochiq ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistondagi migratsiyaga oid so'nggi ma'lumotlar va jarayonlarni qamrab oladi. Hisobot mamlakatdagi ichki va xalqaro migratsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi so'nggi yirik global va mintaqaviy voqealarni, xususan, Rossiyaning Ukrainaga bosqini davom etishi hamda buning natijasida mintaqadagi an'anaviy insonlar mobilligi shakllarining o'zgarishi, shuningdek, urbanizatsiya jarayoni, iqlim o'zgarishi va o'sib borayotgan suv tanqisligi kabi masalalar insonlar mobilligini ta'minlovchi omillar sifatida aks ettiradi.

Metodologiya

IOM tomonidan mavjud statistik ma'lumotlar to'plandi, qayta ishlandi va IOMning Venadagi Mintaqaviy boshqarmasi ma'lumotlar va tadqiqot guruhi rahbarligida to'plangan ma'lumotlar tahlili ishlab chiqildi. Tadqiqot va tahlillar uchun manbalar sifatida milliy va xalqaro tashkilotlar, milliy tadqiqot markazlari va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun dolzarb hisoblangan mualliflarning nashrlari hamda tegishli hisobotlarga oid adabiyotlar sharhlari tanlab olindi. Asosiy ma'lumotlar manbalari quyidagi tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan:

- Milliy statistika idoralari va markaziy banklar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi;
- Tegishli davlat organlarining hisobotlari;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Qochqinlar bo'yicha Oliy Komissarligi (UNHCR);

Ikkilamchi manbalar, jumladan xabarlar va maqolalar, mamlakatdagi mintaqaviy migratsiya yo'nalishlarini yoritishda foydalanildi.

Hisobot qamrov doirasi

Hisobot hozirda ochiq manbalarda mavjud bo'lgan tegishli va ishonchli ma'lumotlar to'plamidan foydalanilgan holda O'zbekistondagi migratsiya jarayonlari bilan bog'liq eng dolzarb mavzularni yoritishga qaratilgan. Hisobotda barcha migratsiya mavzularini qamrab olish maqsad qilinmagan. Xalqaro va ichki migratsiya ko'lami, doimiy yashash

maqsadidagi migratsiya va emigratsiya oqimlari, O'zbekistondan chetga mehnat migratsiyasi oqimi, o'zbekistonlik migrantlar boruvchi asosiy mamlakatlar, iqlim o'zgarishi va migratsiya muammolari, rasmiylashtirilmagan migratsiya va odam savdosi, chet eldan pul o'tkazmalari va boshqa mavzular keng qamrab olingan. Ma'lumotlarning cheklanganligi (1) ko'rsatilgan davr uchun ba'zi ma'lumotlarning mavjud emasligi, (2) boshqa ma'lumotlar bilan mos kelmasligi va nomutanosib guruhlarga ajratilishi yoki (3) jamoatchilikga ma'lum bo'lmagan metodologiyalar tufayli kelib chiqgan bo'lishi mumkin. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan manbalarga murojaat qiling.

Xalqaro va ichki migrantlar ko'lami va oqimi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'zStat) ichki va xalqaro migratsiya oqimlari bo'yicha so'nggi ma'lumotlarni taqdim etadi. Migratsiya vaziyatiga oid hisobot: O'zbekiston (2023-yil yanvar-mart)da qayd etilganidek, ushbu hisobotda keltirilgan O'zStat ma'lumotlari boshqa manbalardan olingan ma'lumotlardan yig'ish davri va atamalar ta'rifidagi tafovutlar tufayli farq qilishi mumkin.

O'zStatning dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning oktabr oyi holatiga ko'ra, mamlakat aholisining umumiyl soni 36,6 million kishini tashkil qilgan. 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ro'yxatga olingan jami ko'chib kelish migratsiya oqimi 168,7 ming kishini tashkil etgan, ularning aksariyati (58.5%) ayollar (98,600 kishi), qolgan qismi esa (41.5%) erkaklar (70,100 kishi) bo'lgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davridagi ro'yxatga olingan ko'rsatgichga (166,909 kishi) nisbatan ikki foizga oshgan. Eng yuqori ko'chib kelish migratsiya oqimi Toshkent shahriga (73,532 kishi), eng pasti esa Namangan viloyatiga (2,017 kishi) to'g'ri kelgan. Ko'chib kelish migratsiya oqimi – bu bir hududga chet eldan va O'zbekistonning boshqa viloyatlaridan ko'chib kelganlar sonidan iborat (O'zStat, 2023-yil). Xuddi shu davrdagi ko'chib ketish migratsiya oqimi 181,1 ming kishini tashkil etgan: uning ko'pchilik qismini (58.5%) ayollar (105,100 kishi), qolgan qismini esa (41.5%) erkaklar (76,000 kishi) tashkil etgan.

1-rasm. Ko'chib kelish migratsiya oqimi, 2023-yil yanvar-sentabr (mutlaq raqamlar va foiz)




Manba: O'zStat, 2023-yil

Ko'chib ketish migratsiya oqimi mamlakat ichida va mamlakatdan tashqariga ko'chib ketuvchilar sonini nazarda tutadi (O'zStat, 2023-yil). Ko'chib ketish migratsiya oqimi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat ichida doimiy yashash joyini o'zgartirgan ichki migrantlar (taxminan 92%) 166,430 nafarga yaqin hisoblanadi. Ko'chib ketish migratsiya oqiminining eng yuqori ko'rsatgichi shaharlarda qayd etilgan – 124,4 ming kishi (69%), bu ko'rsatgich qishloq joyalarida 56,6 ming kishini (31%) tashkil etgan. Shu davrda O'zbekistondan 14,666 kishi doimiy yashash maqsadida boshqa

davlatlarga ko'chib o'tgan (taxminan 8%). Bu o'tgan yilning shu davrida ko'chib ketganlar sonidan uch baravar ko'pdir (3,151 kishi) (O'zStat, 2023-yil). Bu o'sish mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq, har ikkala migratsiya oqimi sababları milliy statistika organlari tomonidan batafsil o'rnilmagan.

Mamlakatdagi kam daromadlilik darajasi va ish haqining pastligi kabi omillar O'zbekistondan boshqa mamlakatlarga migratsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar sifatida qaraladi.

2-rasm. Ko'chib ketish migratsiyasi oqimi va doimiy yashash joyini o'zgartirgan shaxslar, 2023-yil yanvar-sentabr (mutlaq raqamlar va foiz)




Manba: O'zStat, 2023-yil

Bu kabi omillar ko'pchilik odamlarni mehnat migratsiyasi maqsdadida chet elga ketishga va o'z oilasiga asosan kundalik turmush xarajatlari uchun pul jo'natishlariga undaydi (UNICEF, 2019-yil).

Ayni vaqtda mamlakatda istiqomat qilayotgan chet el fuqarolarining umumiy soni va mazkur davrda doimiy yashash joyini o'zgartirmagan holda mamlakatni tark etgan O'zbekiston fuqarolarining umumiy soni to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas.

3-rasm. O'zbekistonga mamlakatlar bo'yicha doimiy yashash uchun kelgan migrantlar soni, 2023-yil yanvar-sentabr (mutlaq raqamlar)



Manba: O'zStat, 2023-yi

Shu sababdan mavjud ma'lumotlar migratsiya bilan bog'liq holatni to'liq qamrab ololmasligi mumkin. Ichki migratsiya jarayonini kuzatish tizimlari birinchi navbatda doimiy yashash joyini o'zgartirish bo'yicha ma'lumotlarga tayanadi, bu esa vaziyatni har tomonlama qamrab olishni chekllovchi yana bir omildir.

2023-yilning dastlabki o'n oyida 52 mingga yaqin chet el fuqarolari qisqa muddatli tijorat maqсадада O'zbekistonga tashrif buyurgan. Ularning aksariyatini Turkmaniston fuqarolari (32,500 kishi) tashkil etgan, keyingi o'rnlarda Tojikiston (11,900 kishi), Afg'oniston (1,400 kishi), Turkiya Respublikasi (900 kishi) va Xitoy (800 kishi) fuqarolari qayd etilgan (O'zStat, 2023-yil).


BMTning Qochqinlar bo'yicha oliy komissarligi (UNHCR) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil iyun holatiga ko'ra, mamlakatda 13,025 nafar qochqin (barchasi Afg'oniston fuqarolari) va 25,413 nafar fuqaroligi yo'q shaxslar mavjud (UNHCR, 2023-yil).

O'zbekiston BMTning Qochqinlar bo'yicha konvensiyasiga a'zo davlat hisoblanmaydi, shu sababli mamlakatdagi Afg'oniston fuqarolari qochqin sifatida emas, balki vaqtinchalik rezident sifatida ro'yxatga olingan. O'zbekiston hukumati tomonidan bu borada e'lon qilingan so'nggi ma'lumotlar 2021-yilga taaluqli bo'lib, o'shanda mamlakatda 13,032 nafar Afg'oniston fuqarosi istiqomat qilayotgan edi (IIV, 2021-yil). Shundan so'ng hozirgacha bu borada boshqa rasmiy raqamlar e'lon qilinmagan.

O'zbekistonga doimiy yashash uchun migratsiya

2023-yilning yanvar-sentabr oylari davomida O'zbekistonga doimiy yashash maqсадада 2,262 nafar xalqaro migrant kelgan. O'zbekistonga kelgan xalqaro migrantlarning aksariyati Rossiya Federatsiyasi fuqarolari (38.9%, 880 kishi), undan keyingi o'rnlarda Qozog'iston (24.5%, 554 kishi), Tojikiston (10.5%, 238 kishi), Qirg'iziston (5.1%, 116 kishi), Turkmaniston (1.6%, 37 kishi) va boshqa mamlakatlar (19.4%, 437 kishi) fuqarolari bo'lган. Ko'chib kelgan migrantlarning yoshiga ko'ra, ularning 82.8 foizi mehnatga layoqatli yoshda, 9.4 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichik (18 yoshdan kichik) va 7.8 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kattalar bo'lган (O'zStat, 2023-yil).

4-rasm. O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun emigratsiya oqimi, 2023-yil yanvar-sentabr (mutlaq raqamlar)



Manba: O'zStat, 2023-yi

O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun emigratsiya


2023-yilning yanvar-sentabr oylari davomida O'zbekistondan doimiy yashash maqsadida boshqa davlatlarga ko'chib ketgan shaxslar soni 14,666 kishini tashkil qilgan. Qayd etilgan emigratsiyaning asosiy qismi Qozog'istonga (81.3%, 11,921 kishi), shuningdek Rossiya Federatsiyasi (15.3%, 2,248 kishi), Qirg'iziston (0.5%, 72 kishi), Koreya Respublikasi (0.5%, 71 kishi), Turkmaniston (0.2%, 32 kishi) va boshqa mamlakatlarga (2.2%, 322 kishi) to'g'ri kelgan. O'zbekistondan ko'chib ketgan aholining 81.4 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilar, 10.4 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichik (18 yoshgacha) va 8.2 foizi esa mehnatga layoqatli yoshdan kattalar bo'lgan (O'zStat, 2023-yil).

O'zbekistondan asosiy boriluvchi mamlakatlarga mehnat migratsiyasi oqimi

Chet eldag'i mayjud o'zbekistonlik mehnat migrantlarining soni qabul qiluvchi mamlakatlardagi ish imkoniyatlari va mavsumiy ishlar mavjudligiga qarab juda o'zgaruvchan bo'ladi (TMMA, 2021-yil).

Oxirgi e'lon qilingan ochiq ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, chet elda mehnat qilayotgan o'zbekistonlik migrant ishchilar soni qariyb 2,1 million kishiga yetgan. O'zbekistonlik mehnat migrantlarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasida bo'lib (62%, 1 million 300 ming kishi), keyingi o'rinnlarda Qozog'istonda 223 ming (11%), Turkiya Respublikasida 113,1 ming (6%), Koreya Respublikasida 66,8 ming (3%) va boshqa

5-rasm. Chet eldag'i o'zbekistonlik migrant ishchilarining mamlakatlar bo'yicha ulushi, 2023-yil sentabr (foiz)




Manba: TMMA, 2023-yil

mamlakatlarda 379,9 ming (18%) mehnat migrantlari qayd etilgan. Ushbu migrant ishchilarning 521,8 ming nafarini (24,6%) ayollar va 1 million 596 ming nafarini (75,4%) erkaklar tashkil etgan. Migrant ishchilarning katta qismi (52,7%) qurilish sohasida faoliyat yuritgan (TMMA, 2023-yil).

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (BKQV) huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMA) tomonidan 2023-yilning yanvar-avgust oylarida tashkil etilgan chet elga ishga yuborish dasturlari orqali 28,207 kishiga chet elda ishga joylashishiga ko'maklashilgan. Ularning aksariyati Rossiya Federatsiyasiga (20,450 kishi), Koreya Respublikasiga (3,184 nafar) va Buyuk Britaniyaga (1,809 nafar) mehnat faoliyatini olib borish uchun yuborilgan (TMMA, 2023-yil).

Kaspiy siyosat markazi (KSM) tadqiqotida ta'kidlanishicha, O'zbekiston tomoni Rossiya Federatsiyasidagi o'zbekistonlik migrantlar bilan bog'liq xavotirlar ortib borayotganligi sababli mehnat migratsiyasi amalga oshiriluvchi mamlakatlarni diversifikasiya qilish imkoniyatlarini faol o'rganmoqda (Ozat, 2023-yil). O'zbekiston mehnat migratsiyasi bo'yicha bir qancha davlatlar, jumladan, Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Yaponiya bilan ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirishi hamda Kanada va Shvetsiya kabi yangi davlatlar bilan hamkorlik asosini yaratishi kutilmoqda.

6-rasm. TMMA tomonidan tashkil etilgan chet elga ishga yuborish dasturlari orqali chet elga yuborilgan shaxslar, 2023-yil yanvar-avgust (mutlaq raqamlar)



Manba: TTMA, 2023-yil

O'zbekistonlik migrantlar boruvchi asosiy davlatlar: Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya Respublikasi, Koreya Respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Amerika Qo'shma Shtatlari

O'zbekistondan migrantlarning ma'lum bir mamlakatlarga mavjud migratsiya yo'nalishlari bo'ylab harakatlanishiga migratsiya jarayonini belgilovchi madaniy, tarixiy va geografik omillar kuchli ta'sir ko'rsatadi. 2022-yil fevralida Rossianing Ukrainianaga bostirib kirishi natijasida iqtisodiy qiyinchiliklar kuchayganiga qaramay, Rossiya Federatsiyasi o'zbekistonlik migrantlar uchun asosiy manzil bo'lib qolmoqda.

Kuzatuvalar shuni ko'rsatadiki, o'zbekistonlik migrantlar uchun boshqa asosiy yo'nalishlar Qozog'iston, Turkiya Respublikasi va Koreya Respublikasi bo'lib, shuningdek, oz sonli migrantlar Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) va Yevropa Ittifoqi (Yel) davlatlariga mehnat migratsiyasi, ta'lim va boshqa maqsadlar bilan borishadi. Ta'kidlash joizki, o'zbekistonlik migrantlar soni bo'yicha qabul qiluvchi davlatlar tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar qo'llanilgan metodologiya va yondashuvdag'i tafovutlar tufayli O'zbekistonning tegishli rasmiy tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlardan farq qilishi mumkin. Shu sababli bu jarayonlarni yanada yaxlitroq ko'rib chiqishda O'zbekistonning tegishli rasmiy tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarni qabul qiluvchi davlatlar milliy statistik idoralari rasmiy statistik ma'lumotlari bilan to'ldirish alohida ahamiyatga egadir.

Rossiya Federatsiyasi

Rossiya Federatsiyasi Federal davlat statistika xizmati (Rosstat) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning birinchi choragida mamlakatga mehnat migratsiyasi maqsadida deyarli 1,3 million migrant kelgan, bu o'tgan yilning shu davrida Rossiya Federatsiyasiga kelgan mehnat migrantlaridan 1,6 barobar ko'pdir (841,501 kishi). 2023-yilning birinchi choragida Rossiya Federatsiyasiga kelgan o'zbekistonlik migrantlar soni 630,859 kishini tashkil etgan, bu o'sha davrda mamlakatga kelgan barcha xalqaro



migrantlarning 48.8 foiziga teng bo'lgan (Rosstat, 2023-yil). 2023-yilning birinchi yarmida Rossiya Federatsiyasiga kelgan migrantlar soni qariyb 3,5 million kishi bo'lib, bu 2022-yilning shu davrida Rossiya Federatsiyasiga kirgan 5,8 million migrantlar soniga nisbatan 40 foizga kamdir (Rosstat, 2023-yil).

Migratsiya oqimining kamayish jarayonini Rossiya Federatsiyasining Ukrainaga bostirib kirishi xorijlik migrantlarga nisbatan yuzaga keltirgan ta'siri orqali o'rorganish mumkin. Rossiya Federatsiyasidagi o'zbekistonlik migrantlar kuchaytirilgan xavfsizlik choralar, ayblovlar va hatto urush harakatlariga qo'shilish uchun to'g'ridan-to'g'ri yollanishga da'vatlarga duch kelgan. Shuningdek, 2022-yil sentabr oyida Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirish harbiy xizmatni o'tash sharti bilan chet el fuqarolarining fuqarolikni olish jarayonini osonlashtirgan (Schenk, 2023-yil).

Qozog'iston

2023-yilning birinchi yarmida Qozog'istonda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlaridan kelgan jami 317,793 nafar migrant qayd etilgan bo'lib, ularning 63.6 foizi o'zbekistonlik migrantlar (220,202 kishi) bo'lgan (Qozog'iston MXQ, 2023-yil).

7-rasm. Qozog'istonda vaqtinchalik va doimiy yashash ruxsatnomasiga ega bo'lgan o'zbekistonlik migrantlar ulushi, 2023-yil iyun (foiz)



Manba: Qozog'iston MXQ, 2023-yil

2023-yilning birinchi yarmida chet ellik migrantlarga taqdim etilgan vaqtinchalik yashash ruxsatnomalarining umumiy soni 390,710 tani tashkil etgan va uning deyarli 64 foizi O'zbekiston fuqarolariga (250,194 kishi) berilgan. 2023-yilning birinchi olti oyi davomida berilgan doimiy yashash ruxsatnomalarining umumiy soni 13,652 tani tashkil etib, 3,198 nafar O'zbekiston fuqarosiga doimiy yashash ruxsatnomalari berilgan. Bu davrda O'zbekiston fuqarolari Qozog'istonda chet elliklarga berilgan jami doimiy yashash ruxsatnomalarining deyarli 23 foizini tashkil etib, Rossiya Federatsiyasi fuqarolaridan (50.2%) keyin ikkinchi yirik davlat bo'lgan (Qozog'iston MXQ, 2023-yil). Biroq, O'zbekiston rasmiy statistika organlari 2023-yilning yanvar-iyun oylarida Qozog'istonga doimiy yashash maqsadida 7,080 nafar shaxs mamlakatdan ketganini ma'lum qilgan (O'zStat, 2023-yil).

IOM ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning ilk choragida Qozog'istonga 56,112 nafar xalqaro migrant ishchilar kelgan va ularning 86 foizi o'zbekistonlik migrantlar bo'lgan (IOM Qozog'iston, 2023-yil).

Turkiya Respublikasi

2023-yilning birinchi o'n oyida 163 mingga yaqin O'zbekiston fuqarolari Turkiya Respublikasiga turli maqsadlarda borgan – 75.2 foizi hordiq chiqarish va dam olish, 19,7 foizi qarindoshlarni ko'rish, 1.2 foizi ta'lim olish, 2.7 foizi boshqa maqsadlarda safar qilgan (O'zStat, 2023-yil). Turkiya Respublikasi iqtisodiy qiyinchiliklar va turk lirasining deflyatsiyasiga qaramay, o'zbekistonlik migrantlar uchun eng jozibador mamlakatlardan biri bo'lib qolmoqda. Turkiya Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya boshqaruvi raisligi (MBR) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning birinchi o'n bir oyida mamlakatdagi yashash uchun ruxsatnomaga ega O'zbekiston fuqarolari soni 52,174 kishini tashkil etib, mamlakatdagi bunday ruxsatnomaga ega chet el fuqarolari ichida eng yuqori yettilikni qayd etishgan. Shu davrda O'zbekiston fuqarolariga oilaviy sabablarga berilgan yashash ruxsatnomalari 11,370 tani tashkil etgan bo'lsa, bu raqam 2023-yilning aprel oyida 9,749 tani tashkil etgan edi. Shuningdek, 2023-yilning aprel oyidan buyon O'zbekiston fuqarolariga berilgan qisqa muddatli yashash ruxsatnomalar soni 38,763 tadan 28,713 taga kamaygan. (MBR, 2023-yil).

Koreya Respublikasi


2023-yil yanvar-oktabr oylarida Koreya Respublikasiga safar qilgan O'zbekiston fuqarolarining sezilarli qismi (14,730 kishi) – 64.6 foizi dam olish, 23.4 foizi qarindoshlarni ko'rish, 8.7 foizi davolanish va 2.9 foizi boshqa maqsadlarda safar qilgan (O'zStat, 2023-yil).

Koreya immigratsiya xizmatining (KIX) so'nggi hisobotiga ko'ra, 2023-yil sentabr holatiga ko'ra, mamlakatda 2 million 514 ming 159 nafar chet el fuqarosi istiqomat qilgan: O'zbekiston fuqarolari 86,620 nafar (3.4 %) bo'lib, Koreya Respublikasidagi chet el fuqarolari orasida son jihatdan beshinchi yirik davlat bo'lgan. O'zbekistonlik migrantlarning katta qismi (61.3%, 53,103 kishi) yashash uchun ruxsatnomaga ega bo'lgan. Umumiy o'zbekistonlik migrantlar sonining 30.9 foizini (26,808 kishi) O'zbekiston fuqarosi hisoblangan etnik koreyslar, qolgan qismini esa qisqa muddatli yashash ruxsatnomasiga ega o'zbekistonlik migrantlar (7.7%, 6,710 kishi) tashkil etgan. 2023-yil sentabr holatiga ko'ra, Koreya Respublikasida istiqomat qilayotgan barcha O'zbekiston fuqarolarining 28.5 foizi (24,170 kishi) mamlakatda ishslash uchun ruxsatnomaga ega hisoblagan (KIX, 2023-yil). Koreya Respublikasidagi chet ellik talabalar soniga kelsak, 2023-yil may oyi holatiga ko'ra bu raqam 188,000 kishini tashkil etib, o'zbekistonlik talabalar mamlakatdagi barcha xalqaro talabalarning 6.4 foizini tashkil qilgan (KSAX, 2023-yil).

Birlashgan Arab Amirliklari

2023-yilning yanvar-oktabr oylari davomida 104,643 nafar O'zbekiston fuqarosi BAAga borgan: 82.6 foizi (86,519 kishi) dam olish maqsadida, 16.2 foizi (17,024 kishi) qarindoshlarni ko'rish uchun, 0.4 foizi (392 kishi) davolanish uchun, 0.4 foizi (376 kishi) rasmiy tashrif maqsadida va 0.3 foizi (332 kishi) ta'lim olish maqsadida safar qilgan (O'zStat, 2023-yil). BAAAdagi o'zbekistonlik mehnat migrantlari soni bo'yicha 2023-yilning aprel-sentabr oylariga tegishli ochiq rasmiy ma'lumotlar mavjud emas. Ommaviy axborot vositalarida BKQV rasmiy ma'lumotlariga asoslanib e'lon qilingan so'nggi yangiliklarga ko'ra, har yili taxminan 4200 nafar o'zbekistonlik mehnat migranti BAAga ishslash maqsadida boradi (BKQV, 2019-yil).

8-rasm. Koreya Respublikasidagi o'zbekistonlik migrantlarning rasmiy maqomi bo'yicha ulushi, 2023-yil sentabr (foiz)



Manba: KIX, 2023-yil

Amerika Qo'shma Shtatlari

2023-yilning yanvar-avgust oylari davomida 8,163 nafar O'zbekiston fuqarosi AQShga sayyoohlilik va ta'lim olish maqsadida safar qilgan (O'zStat, 2023-yil). O'zbekistonlik migrantlarning taxminan 59 foizi ingliz tilini yaxshi biladi, 53 foizi esa bakalavr yoki undan yuqori ta'lim darajasiga ega (AQSh Aholini ro'yxatga olish byurosi, 2023-yil).

O'zbekiston fuqarolari uchun Diversity Visa (DV) dasturi AQShga borishning eng tezkor yo'li bo'lib qolmoqda. 2020-yilda DV dasturiga ariza topshirgan O'zbekiston fuqarolari soni 1,674,787 kishini (yakunlanmagan arizalar soni bilan 2,572,653 ta yoki O'zbekiston aholisining qariyb 8 foizi) tashkil etib, bu O'zbekistonni Ganadan keyin ikkinchi eng ko'p ariza topshirgan davlatga aylantirgan. O'zbekistonlik DV dasturi g'oliblari soni so'nggi yillarda nisbatan barqaror qolgan: 2021-yil uchun 5,319 kishi, 2022-yil uchun 6,001 kishi va 2023-yil uchun 5,511 kishi bo'lgan (AQSh Davlat departamenti, 2023-yil). Aksariyat ayollar AQShga migratsiya qilishga turki bo'lgan omillar sifatida O'zbekistonda ularning o'zi va farzandlari uchun cheklangan iqtisodiy va ta'lim imkoniyatlarini sabab qilib ko'rsatgan bo'lsa, erkaklar AQShdagi ishga joylashish va iqtisodiy imkoniyatlarni qayd etishgan (Tsoy va boshqalar, 2023-yil).

Yevropa Ittifoqi davlatlari


2023-yil aprel-sentyabr oylarida Yel mamlakatlarida O'zbekiston fuqarolariga berilgan yashash uchun ruxsatnomalarning umumiyligi soni to'g'risida aniq ma'lumotlar hozircha mavjud emas, biroq Yel statistika platformasining (Yevrostat) 2022-yil 31-dekabr holatiga ko'ra, Yel mamlakatlarida yashash ruxsatnomasiga ega O'zbekiston fuqarolarining soni 40,406 nafarni tashkil etgan. Ularning asosiy qismi Polshada (23.6%, 9,541 kishi) bo'lib, keyingi o'rnlarda Germaniya (19.6%, 7,973 kishi), Latviya (8.1%, 3,275 kishi), Chexiya (7.5%, 3,036 kishi), Shvetsiya (7.0%, 2,873 kishi) va boshqa Yel davlatlari (33.9%, 13,708 kishi) qayd etilgan (Yevrostat, 2023-yil).

Yevrostat ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning to'qqiz oyi davomida O'zbekiston fuqarolari tomonidan Yel davlatlarida boshpvana so'rab murojaat qilganlar soni 880 nafarga teng bo'lgan – 77.2 foiz erkaklar va 22.8 foiz ayollar. Bu davrda O'zbekiston fuqarolari tomonidan shu maqsadda berilgan arizalarning asosiy qismi (63% yoki 555 ta ariza) Shvetsiyada ro'yxatga olingan (Yevrostat, 2023-yil).

Yevrostat e'lon qilgan ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning dastlabki uch choragida 2,700 nafarga yaqin O'zbekiston fuqarosiga Yel hududini tark etish bo'yicha so'rov yuborilgan (Yevrostat, 2023-yil). Ularningaksariyati Shvetsiyada (625 kishi) va Latviyada (600 kishi) istiqomat qilgan (Yevrostat, 2023-yil). Germaniyada esa 2022-yilda deportatsiya qilinishi kutilgan 253 nafar O'zbekiston fuqarosi hamon mamlakatda yashamoqda. 2023-yil may oyi boshida O'zbekiston va Germaniya o'rtasida deportatsiya jarayonini osonlashtiruvchi shartnoma imzolanib, shu bilan birga O'zbekistondan Germaniyaga bolalar va qariyalar uchun xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni jalb qilishga kelishilgan (Yuz.uz, 2023-yil).

Yevropa Ittifoqiga yo'l olgan o'zbekistonlik migrantlarning aksariyati yashash xarakatlarning arzonligi, ishslash uchun ruxsat olishning nisbatan osonligi, ta'lim xarakatlarning pastligi va polyak tilini tezroq o'rganish orqali mahalliy madaniyatga integratsiyalashuv nisbatan oson ekanligi tufayli Polshani afzal ko'radi. Polsha statistika xizmati ma'lumotlariga ko'ra, 2022-2023-o'quv yilida o'zbekistonlik talabalar soni 2,049 nafarni tashkil etib, 2022-yilda jami 33,373 nafar O'zbekiston fuqarolariga ishslash uchun ruxsatnomalar berilgan (PSX, 2023-yil).

9-rasm. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yashash ruxsatnomalariga ega O'zbekiston fuqarolari soni, 2022-yil (mutlaq raqamlar)




Manba: Yevrostat, 2023-yil

Iqlim o'zgarishi va migratsiya

Jahon banki (JB) guruhi va Osiyo taraqqiyot banking (OTB) so'nggi iqlim prognozlariga ko'ra, yaqin kelajakda O'zbekistonda aholi salomatligi uchun xavfli bo'lgan yuqori harorat darajasi odatiy holga aylanishi mumkin. Prognozlar shuni ko'rsatidiki, 2090-yilga kelib haroratning nihoyatda o'sishi Farg'ona vodiysi ($5,6^{\circ}\text{C}$ - $5,7^{\circ}\text{C}$) va Orolqum cho'lida ($5,5^{\circ}\text{C}$ - $5,6^{\circ}\text{C}$) kuzatilishi mumkin (JB va OTB, 2021-yil). O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlardan vazirligi (FVV) tomonidan 2023-yilning yanvar-sentabr oyлari davomida tabiiy ofatlar natijasida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarning uchta holati e'lon qilingan. 2022-yilda esa bunday holatlar oltitani tashkil etgan edi (FVV, 2023-yil). Ichki ko'chish monitoring markazi (IKMM) ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistonda suv toshqinlari oqibatida 170 nafar aholi mamlakat ichida ko'chirilgan (IKMM, 2023-yil).

10-rasm. O'zbekiston YalMDa qishloq xo'jaligi ulushi va qishloq xo'jaligiga bog'liq ishchi kuchi ulushi, 2023-yil (foiz)



O'zbekiston Yalpi ichki mahsuloti (Yalm) ulushi


Manba: XSM, 2023-yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) Markazi Osiyo mintaqasida tabiiy ofatlardan yillik iqtisodiy yo'qotish 3 milliard AQSh dollariga yetganini, bu esa 1,4 million aholiga ta'sir ko'rsatishini ma'lum qilgan (SMTI, 2023-yil). Iqlim o'zgarishining O'zbekistondagi migratsiya holatiga ta'sirlarini o'rganish uchun qo'shimcha ma'lumotlar zarur.

2023-yilning aprel oyida 2015-2020 yillardagi Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha Sendai strategiyasini O'zbekistonda amalga oshirishga

qaratilgan 2023-2030-yillarga mo'ljallangan Milliy harakatlar rejasiga qabul qilindi. Sendai strategiyasi asosida Milliy harakatlar rejasiga tabiiy ofatlarning aholi ko'chishiga ta'siri, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirishni loyihalash va amalga oshirishda migrantlarning mavjud bilim, ko'nikma va imkoniyatlaridan foydalanishi muhimligiga aniq tushunchalar berishga qaratilgan.

Xalqaro savdo ma'muriyati (XSM) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda qishloq xo'jaligi mamlakat yalpi ichki mahsulotining (Yalm) 25 foizini tashkil qiladi va jami ishchi kuchining 20 foizini ish bilan ta'minlaydi (XSM, 2023-yil). Yer va tuproq degradatsiyasi, suv tanqisligi va iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan tabiiy ofatlarning aholi turmush tarziga ta'siri, ayniqsa, Farg'ona vodiysida ko'proq e'tibor talab etadi. Tabiiy ofatlar soni va davomiyligining oshishi mavsumiy va uzoq muddatli migratsiya jarayonini kuchaytirishi mumkin (JB va OTB, 2021-yil).



Rasmiylashtirilmagan migratsiya va odam savdosи

So'nggi vaqtarda kam sonli O'zbekiston fuqarolariga aloqador rasmiylashtirilmagan migratsiya holatlari qayd etilgan. O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi (IIV) mamlakatda rasmiylashtirilmagan migratsiya va odam savdosи bilan bog'liq masalalar bilan shug'ullanuvchi asosiy davlat organi hisoblanadi. Biroq, O'zbekiston chegarasiga noqonuniy kirish-chiqish bilan bog'liq ochiq ma'lumotlar mavjud emas.

Yevrostat ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda jami 2,145 nafar O'zbekiston fuqarosi Yel mamlakatlarda norasmiy tarzda istiqomat qilganligi aniqlangan (Yerostat, 2023-yil). Shvetsiyada o'zbekistonlik migrantlar jamoasi nisbatan kichik, ammo o'sib bormoqda. Mustaqil tadqiqotchi Sherzod Eraliyev Shvetsiyada 5,000 dan ortiq o'zbekistonlik fuqarolar istiqomat qilishini ta'kidlagan, biroq mamlakatdagi o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar soni 15,000 kishidan 20,000 kishigacha yoki rasmiy ma'lumotlardan 3-4 baravar ko'p ekani aytildi. O'zbekistonlik noqonuniy migrantlar qurilish, xizmat ko'rsatish va restoran sohalarida ishga joylashadi. Shvetsiyadagi o'zbek migrantlarining aksariyati ikki yo'l bilan—Shvetsiyadagi Polsha, Estoniya yoki Latviya firmalari orqali ish bilan hamda qo'shni davlatlardan mustaqil ravishda kelib qolishgan. Mamlakatda qolishning amaldagi rasmiy yo'llarini topa olmagan bu shaxslarning ko'pchiligi norasmiy vosita va yo'llarga murojaat qilishadi (Eraliyev, 2023-yil).

Turkiya Respublikasi MBR ma'lumotlariga ko'ra, Turkiyada rasmiy organlar tomonidan qo'lga olingen o'zbekistonlik norasmiy migrantlar soni 2023-yil noyabr holatiga ko'ra 9,172 kishi bo'lgan. Bu davrda o'zbekistonlik norasmiy migrantlar Turkiya Respublikasidagi barcha norasmiy migrantlarning 3.8 foizini tashkil qilgan (MBR, 2023-yil).

AQShda 2021-2023-yillar oralig'ida AQSh hukumati tomonidan "maxsus manfaatga ega chet elliklar" deb tasniflangan o'n minglab immigrantlar Meksika orqali AQShga norasmiy yo'llar kirishga harakat qilishgan. Bu davrda kontrabandachilar xizmati va norasmiy migratsiya yo'llaridan foydalangan 13,000 dan ortiq O'zbekiston fuqarolari hibsga olingen (AQSh bojxona va chegara xizmati, 2023-yil). Qonun doirasidan tashqari tartibsiz migratsiya xavfsizlikga tahdid ekanligi borasidagi qarashlar sabab migratsiya ustidan nazorat kuchaytirilgan. Shu asnoda, AQSh-Meksika chegarasi xavfsizligini ta'minlashning kuchaytirilishi bo'lajak migrantlarni noqonuniy va ko'pincha halokatli migratsiya yo'llarini tanlashga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston fuqarolari ishtirokidagi odam savdosи bilan bog'liq ma'lumotlar AQShning Odam savdosи bo'yicha yillik hisobotida (USTIP) va O'zbekiston IIV tomonidan taqdim etiluvchi

hisobotlar orqali topilgan. O'zbekiston rasmiy idoralari ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda odam savdosи bo'yicha 172 ta tergov amalga oshirilgan bo'lib, ulardan 125 tasi jinsiy zo'ravonlik, 16 tasi majburiy mehnat va 31 tasi bolalar ekspluatatsiyasi bilan bog'liqidir. O'tgan yilning o'zida rasmiylar tomonidan odam savdosи qurban sifatida 93 kishi (80 nafar ayol va bir nafar qiz jinsiy zo'ravonlik uchun hamda 12 nafar erkak majburiy mehnat uchun) aniqlangan, nodavlat notijorat tashkilotlari esa odam savdosи qurbaniga aylangan yetti nafar shaxsni aniqlashgan – to'rt nafar ayol jinsiy zo'ravonlik uchun hamda uch nafar erkak majburiy mehnat uchun ekpluatatsiya qilingan (AQSh Davlat departamenti, 2023-yil).

IOM rasmiy murojaati orqali O'zbekiston IIVdan olingen ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning o'n bir oyida odam savdosining 141 ta holati qayd etilgan va 193 nafar odam savdosи qurban sifatida 93 kishi (18 nafar erkak, 133 nafar ayol va 42 nafar 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar). O'zbekiston fuqarolari ishtirokidagi odam savdosining asosiy yo'nalishlari Turkiya Respublikasi, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, BAA va Hindiston bo'lgan (IIV, 2023-yil).

11-rasm. O'zbekistonlik odam savdosи qurbanlari soni, 2023-yil yanvar-noyabr (mutlaq raqamlar)



Manba: IIV, 2023-yil



O'zbekistonga pul o'tkazmalari oqimi

2023-yil boshidan buyon chet eldan O'zbekistonga pul o'tkazmalari oqimida tebranishlar kuzatilgan. JB ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning dastlabki to'rt oyida O'zbekistonga pul o'tkazmalari hajmi 2022-yilning shu davriga nisbatan 21 foizga o'sib, 3,1 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu davrda mamlakatga pul o'tkazmalari oqimining 87 foizi Rossiya Federatsiyasidan kirib kelgan (Kim, 2023-yil).

O'zbekiston Markaziy banki (MB) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida mamlakatga yuborilgan jami pul o'tkazmalari tushumi 5,2 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu 2022-yilning shu davridagi pul o'tkazmalariga nisbatan 21,5 foizga kamdir. Rossiya Federatsiyasidan yuborilgan pul o'tkazmalari 2023-yilning birinchi yarmida O'zbekistonga yuborilgan pul o'tkazmalari oqimining asosiy manbai bo'lgan (MB, 2023-yil).

Yil oxirigacha pul o'tkazmalarining jami tushumi 11-11,5 milliard AQSh dollari atrofida bo'lishi kutilmoqda, bu 2022-yilda O'zbekistonga yuborilgan jami pul o'tkazmalaridan deyarli 32-35 foizga kam ko'rsatgichdir (16,9 milliard AQSh dollari) (MB, 2023-yil). Pul o'tkazmalarining kamayishi boshqa mutaxassislar tomonidan ham bashorat qilinmoqda, xususan, 2023-yilda Yevropa va Markaziy Osiyoga pul o'tkazmalari oqimining bir foizga qisqarishi JB tomonidan taxmin qilingan (Ratha va boshqalar, 2023-yil).

12-rasm. 2020-2023-yillarda O'zbekistonga pul o'tkazmalari oqimi (milliard AQSh dollari va foiz)



2023-yilning birinchi yarmida O'zbekistonga yuborilgan pul o'tkazmalardagi ulushlar

Manba: MB, 2023-yil

MB o'tgan yilda O'zbekistonga pul o'tkazmalarining keskin o'sishini pul jo'natish bo'yicha ilgari hisoblanmagan kanallarning qonuniylashtirilishi, naqd puldagi eksport tushumining ko'payishi va boshqa omilllar bilan izohlagan. O'zbekistonga chet eldan pul o'tkazmalarining bir qismi o'z davlatlarida naqd valyuta taqchilligi tufayli chet eldag'i Qirg'iziston va Tojikiston fuqarolari tomonidan oshirilgan. Mazkur shaxslar o'z pullarini naqdashtirish maqsadida O'zbekiston banklariga yuborganligi aniqlangan (MB, 2023-yil).

Qisqartmalar

AQSh Amerika Qo'shma Shtatlari

BAA Birlashgan Arab Amirliklari

BMT Birlashgan Millatlar Tashkiloti

BKQV O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi

JB Jahan banki

IIV O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

IKMM Ichki ko'chish monitoring markazi

IOM Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot

KIX Koreya immigratsiya xizmati, Koreya Respublikasi Adliya vazirligi

KSAX Koreya statistik axborot xizmati

KSM Kaspiy siyosiy markazi

MB O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

MBR Turkiya Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya boshqarmasi raisligi

MDH Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi

MSI Migratsiya siyosati instituti

MXQ Qozog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya xizmati qo'mitasi

OTB Osiyo taraqqiyot banki

PSX Polsha statistika xizmati

Rosstat Rossiya Federasiyasining Federal davlat statistika xizmati

SMTI O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti

TMMA O'zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiyasi bo'yicha AELM agentligi

UNHCR Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi

XSM Xalqaro savdo ma'muriyatি

O'zStat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi O'zStatistika agentligi

Yel Yevropa Ittifoqi

Yevrostat Yevropa Ittifoqi statistika platformasi

YalM Yalpi ichki mahsuloti

Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati

AQSh Aholini ro'yxatga olish byurosi

2023 [Qo'shma Shtatlardagi tanlangan aholi profili: O'zbekiston](#), AQSh Aholini ro'yxatga olish buyorosi sayti

AQSh Davlat departamenti

2023 [Diversity Visa dasturi statistikasi](#), AQSh Davlat departamenti sayti.

2023 [Odam savdosi hisoboti 2023-yil: O'zbekiston](#), AQSh Davlat departamenti sayti.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (UNICEF)

2019 [Migratsyaning O'zbekistondagi bolalarga ta'siri](#), UNICEF sayti.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi (UNHCR)

2023 [UNHCR qochqinlar ma'lumot bazasi](#), UNHCR sayti.

De Haas H., Kastles S. and M. Miller

2019 [Migratsiya asri](#), Red Globe nashriyoti, London.

Eraliev, Sh.

2023 ["Migratsyaning yashirin tomonlari: Shvetsiyadagi o'zbek migrantlari orasida hujatsizlik, norasmiylik va jinoyatchilik o'rtaсидagi bog'liqlikni o'rganish"](#), Nordic Journal of Criminology, 24(2), 1-6-bet.

Ichki ko'chish monitoring markazi (IKMM)

2023 [Ichki ko'chishlar bo'yicha global hisobot](#), IKMM, Vena.

Jahon banki (JB) va Osiyo taraqqiyot banki (OTB)

2021 [Iqlim xavfi bo'yicha mamlakat profili: O'zbekiston](#), OTB sayti.

Kim, E.J.

2023 [Yevropa va Markaziy Osiyoga pul o'tkazmalari kuchli o'sishni ko'rsatmoqda](#), Jahon banki (JB) blogi.

Koreya immigratsiya xizmati, Koreya Respublikasi Adliya vazirligi (KIX)

2023 [Immigrantlar va xorijiy rezidentlar bo'yicha 2023-yil Sentabr oyi statistikasi](#), KIX sayti.

Koreya statistik axborot xizmat (KSAX)

2023 [Statistika ma'lumotlari bazasi](#), KSAX sayti.

Migratsiya bo'yicha tashkiloti (IOM)

2023 [Qozog'istonda MTM so'rvonomalari](#), IOM Qozog'iston, Olmaota.

Ozat, M.

2023 [Markaziy Osiyo mehnat migratsiyasi: geosiyosiy keskinliklar sharoitida yangi yo'nalishlarni o'rganish](#), Kaspiy siyosati markazi (KSM), Vashington.

Polsha statistika xizmati (PSX)

2023 [Polshaning demografik yilnomasi](#), Polsha statistika xizmati sayti.

Qozog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Migratsiya xizmati qo'mitasi (MXQ)

2023 [Migratsiya statistikasi](#), MXQ sayti.

Ratha, D., Plaza, S., Kim, E.J., Chandra, V., Kurasha, N. and B. Pradhan

2023 [Pul o'tkazmalari barqarorligicha golmoqda, lekin sekinlashmoqda - Migratsiya va rivojlanish haqida qisqacha ma'lumot 38](#), KNOMAD – Jahon banki, Vashington, Kolumbiya okrugi.

Rossiya Federatsiyasi Federal davlat statistika xizmati (Rosstat)
2023 [Rasmiy migratsiya statistikasi](#), Rosstat sayti.

Schenk, S.
2023 [Rossiyadagi postsoviet mehnat migrantlari Ukraina urushi fonida](#), Migratsiya siyosat instituti (MSI).

Tsoy, A., Dinh, T. and Sh. Jurabayeva
2023 ["O'zbek migrantlarining AQShdagi migratsiya va qayta joylashish tajribasini tushunish"](#), Magistratura talabalari psixologiya jurnali, 153-176-betlar.

Turkiya Respublikasi Migratsiya boshqarmasi raisligi (MBR)
2023 [Yashash uchun ruxsatnomalar](#), MBR sayti.
2023 [Noqonuniy migratsiya](#), MBR sayti.

Xalqaro savdo ma'muriyati (XSM)
2023 [O'zbekiston – mamlakat savdo profili](#), Xalqaro savdo ma'muriyati.

Yevropa Ittifoqining statistika boshqarmasi (Yevrostat)
2023 [Migratsiya statistikasi](#), Yevrostat ; Bryuksel.

Yuz.uz
2023 [O'zbekiston va Germaniya migratsiya jarayonlarini yengillashtiradi](#), Yuz.uz axborot xizmati.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (BKQV)
2019 [O'zbekiston BAAga bir million mehnat migranti jo'natishni rejalashtirmoqda](#), Spot axborot xizmati.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi
Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMA)
2021 [TMMA rahbarining OAVga intervusi](#), Kun axborot xizmati.
2023 [TMMA yig'ma tahliliy ma'lumoti](#), TMMA sayti.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV)
2023 [Sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarning qiyosiy diagrammasi](#), FVV sayti.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi (IIV)
2021 [Afg'onlar viza muddati tugaganidan keyin deportatsiya qilinmaydi](#), Gazeta axborot xizmati

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB)
2023 [Markaziy bank rahbarining 2023-yilning birinchi yarmi yakunlari bo'yicha hisoboti](#), O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'zStat)
2023 [O'zbekistondagi demografik holat – 2023-yil yanvar-sentyabr oylari \(Dastlabki ma'lumotlar\)](#), O'zStat sayti.
2023 [Statistika agentligi matbuot xizmati](#), O'zStat sayti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti (SMTI)
2023 [O'zbekistonning iqlim muammolarini yengishdagi roli](#), SMTI sayti.

Ushbu hisobotda bildirilgan fikrlar mualliflarga tegishli bo'lib, Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning (IOM) qarashlarini aks ettirmaydi. Hisobot davomida foydalaniłgan belgilarni materiallar IOM tomonidan biron bir mamlakat, hudud, shahar yoki makonning hamda uning hokimiyat organlari huquqiy maqomi, uning sarhad yoki chegaralariga taalluqli hech qanday fikrni bildirmaydi.



Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning (IOM) O'zbekistondagi vakolatxonasi

O'zbekiston, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Lomonosov ko'chasi, 4-uy, 100077

© 2023 Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM)

Qo'shimcha ma'lumot uchun
IOM Toshkent ofisiga murojaat qiling
Elektron manzil: iomtashkent@iom.int

